



MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHLARIDAGI BOLALARDА IJODIY KOMPETENSIYALARНИ SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING AHAMIYATI

Muallif: Egamberdiyeva Maftuna Karimboy qizi¹

Affiliatsiya: Xalqaro Nordik universiteti "Psixologiya va maktabgacha ta'lism kafedrasи assistenti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14406512>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha tayyorlov guruhlardagi bolalarda ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishda musiqaning ahmiyati yoritilgan. Musiqiy faoliyatlar bolalarda ijodiy fikrlash, xotira, ritm hisi va estetik did kabi muhim qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, musiqiy mashg'ulotlar bolalarning o'zini ijodiy ifodalash va ijtimoiylashish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'mak beradi. Maqolada musiqaning bolalar rivojlanishiga qo'shadigan hissasi va uning maktabgacha ta'limgadagi ahmiyati haqida batafsil ma'lumot berilgan. Mazkur mavzu musiqaning bolalar ta'limgida kengroq qo'llanishining dolzarbligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism, ijodiy kompetensiyalar, musiqiy ta'lism, bolalar ijodi, estetik did, ritm va xotira rivojlanishi, ijodiy fikrlash.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lism tizimini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib, so'nggi yillarda bir qator muhim qarorlarni imzoladi. 2024-yil 21-iyunda qabul qilingan PQ-231-sonli qaror maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu qaror doirasida Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda hududiy pedagogik mahorat markazlari tashkil etilib, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni zamonaviy metodikalarga o'rgatish maqsad qilingan. Ushbu qaror va farmonlar maktabgacha ta'lism tizimini rivojlantirish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish hamda ta'lism sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shuningdek "Maktabgacha ta'lism va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" 802-qarorini ham keltirish o'rinni. Zero, maktabgacha yoshdagи bolalarda ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lism jarayonining muhim qismi hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarda ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda musiqaning roli katta, chunki musiqiy faoliyatlar bolalarda estetik hissiyotlarni uyg'otish, ularni ijodkorlikka yo'naltirish va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Musiqa, o'zining turli xil turlari va ifoda usullari bilan bolalarning ijodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa bolaning aqliy va hissiy rivojlanishida ahmiyatlidir. Ayniqsa, maktabgacha tayyorlov guruhidagi bolalar musiqiy ta'sirni kuchli his etadilar. Ular musiqiy asarlarni

eshitish orqali dunyoni o'rganishadi, ularning tasavvurlari kengayadi va ijodiy qobiliyatları rivojlanadi. Masalan, musiqiy hikoyalarning yoki asarlarning mazmunini tasavvur qilish, musiqani ritm va tovushlarga ajratish orqali bolalar o'zlarining ijodiy tafakkurini kengaytiradilar.

Musiqa bolalarda ritm hisini rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi. Musiqiy ritm va temp bolalarga vaqt va tartib tushunchalarini o'rgatadi. Shuningdek, qo'shiqlarni yod olish va qayta ijro etish orqali xotira qobiliyatları mustahkamlanadi. Musiqiy faoliyatlar, jumladan, qo'shiqlarni o'rganish, raqsga tushish va turli musiqiy asboblар bilan tanishish bolalarda kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Musiqa bolalarga o'zlarini ijodiy ifodalash imkoniyatini beradi. Turli ritmlar va ohanglar orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini, kayfiyatlarini ifodalash imkoniga ega bo'ladilar. Musiqiy o'yinlar, qo'shiqlar va raqlar orqali ular o'zlarini yangi va ijodiy usullarda namoyon qilishadi. Shu jarayonda bolaning individual xususiyatlari hisobga olinib, uning ijodiy potensiali rivojlantiriladi.

Maktabgacha tayyorlov guruhlarida musiqiy mashg'ulotlar o'tkazish nafaqat ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish, balki bolalarning ijtimoiylashuviga ham hissa qo'shadi. Masalan, guruh bo'lib qo'shiqlar aytish, raqsga tushish va musiqiy o'yinlar o'ynash bolalarning bir-birlari bilan hamkorlik qilish qobiliyatlarini oshiradi. Bu esa ularda nafaqat ijodiy, balki kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarning shakllanishiga ham yordam beradi.

Maktabgacha tayyorlov guruhlarida musiqiy ta'lim bolalar ijodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Musiqa bolalarda estetik did, ritm hisi, xotira, va ijodiy fikrlash kabi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun kuchli vosita hisoblanadi. Amaliy tadqiqotlar va mashg'ulotlar natijasida musiqiy faoliyatlar bolalarning nafaqat ijodiy, balki ijtimoiy ko'nikmalarini ham yaxshilashini ko'rsatadi. Bolalar musiqaga mos ravishda harakat qilish, o'z his-tuyg'ularini ifodalash va yangi g'oyalarni amalga oshirish orqali o'zlarini yangi yo'nalishlarda kashf qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Musiqa orqali o'zini ifodalash imkoniyati bolalarda ijodiy kompetensiyalar shakllanishini jadallashtiradi, ularga o'z-o'zini anglash va qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Shuningdek, musiqiy mashg'ulotlar bolalarning fikrlash jarayonlarini faollashtirib, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Musiqiy o'yinlar va mashg'ulotlar orqali bolalar bir-birlari bilan hamkorlik qilish va o'zaro muloqot qilish qobiliyatlarini mustahkamlaydilar, bu esa ularning kelajakda ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu amaliy ish rejasini asos qilib olib, musiqiy mashg'ulotlar orqali bolalarning ijodiy rivojlanishiga erishish mumkin. Chunki maktabgacha tayyorlov guruhlarida bolalarda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulot ishlanmasi asosida she'rni ifodali o'qib bera oladi; tanish asarlarni mustaqil so'zlab beradi, ularni sahnalashtirishda ishtirok etadi; she'riy va nasriy badiiy asarlarga munosabat bildiradi; musiqiy asarning xarakterini aniqlashga qodir; bolalar shoiri, yozuvchisi va bastakorlari hamda ularning asarlarini biladi; tasviriy san'at turlarini farqlaydi, turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratadi; individual va jamoada qo'shiq ayta oladi; raqsda harakatlariga jilo bergen holda shaxsiy namuna yaratishi mumkin; musiqiy asboblarda yakkaxon yoki orkestrda jo'r bo'lib chalishi mumkin; g'oya yaratadi va tatbiq etadi; maqsadga erishishda o'rindosh sifatida turli predmetlar qo'llaydi; turli spektakllarda rol ijro etib ishtirok etadi; olamni o'zgartirishda insonning yaratuvchi rolini anglaydi; buyumlarni

ikkilamchi qo'llashda g'oyalar taklif etishi mumkin. Shu bilan birga, musiqiy faoliyatlar bolalarning kognitiv qobiliyatlarini ham mustahkamlaydi, xususan, ular musiqa orqali eshitish va diqqatni jamlash, ma'lumotlarni qayta ishlash va o'zlashtirish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ushbu natijalar musiqaning maktabgacha ta'limda kengroq qo'llanilishi zarurligini ta'kidlaydi. Ta'lim dasturlariga musiqiy faoliyatlarni muntazam kiritish bolalarning umumiyligi rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi va ularning ijodiy potentsialini to'liq ochib berishga yordam beradi.

Shunday qilib, musiqiy mashg'ulotlar orqali ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish maktabgacha ta'limning ajralmas qismi bo'lib, musiqaning bolalar tarbiyasi va ta'limidagi rolini oshirish kelajakda ijodiy, o'ziga ishongan va o'z fikrini erkin ifodalay oladigan avlodni tarbiyalash uchun muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Alliyeva, N. (2019). Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik didni shakllantirishda musiqa ta'limining o'rni. Toshkent: Yangi avlod nashriyoti.

Davydenko, V. A. (2015). Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi: maktabgacha yoshda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Moskva: Pedagogika nashriyoti.

Jalolov, J. (2018). Musiqa ta'limi asoslari: nazariy va amaliy qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston Davlat pedagogika universiteti nashriyoti.

Vygotskiy, L. S. (2004). Bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Toshkent: Iqbol nashriyoti.

Schmidt, M. E., & Smith, R. (2017). The Role of Music in Developing Creativity in Preschool Education. New York: McGraw Hill Education.